

RASMIYLIK KATEGORIYASI VA UNING TILDA IFODALANISHI

Isayeva Gulora Faxriddinovna
O‘zDJTU, o‘qituvchi

Annotatsiya: *Rasmiylik kategoriyasini hosil qiluvchi leksik, morfologik, sintaktik, intonatsion vositalar rasmiy matnlarining shakllanishida muhim o‘rin tutadi. Leksik vositalar rasmiy uslubga xoslangan birliklar bo‘lib, ma‘no mohiyati, rasmiy matnning qaysi turida qo‘llanishiga ko‘ra bir-biridan farqlanadi.*

Kalit so‘zlar: *rasmiy matn, leksik birliklar, ko‘makchi konstruksiyalar, morfologik vositalar, sintaktik qoliqlar, leksema, rasmiy-idoraviy nutq.*

O‘zbek tilida rasmiy muloqot matnlarining shakllanishida maxsus til birliklari muhim o‘rin tutadi. Bu kabi birliklar rasmiylik kategoriyasini hosil qiluvchi birliklar bo‘lib, tilning leksik, frazeologik, morfologik, sintaktik kabi birliklarini qamrab oladi. O‘zbek tilida rasmiylik kategoriyasini hosil qiluvchi vositalarni leksik, morfologik, sintaktik, intonatsion vositalarga ajratish mumkin.

Rasmiylik kategoriyasini hosil qiluvchi leksik vositalar. Bu turga quyidagi leksik birliklar kiradi: *imzo chekuvchilar, qabul qilib oluvchi, hisob beruvchi, vasiyat qiluvchi, mudir, kotiba, hisobchi, soliqchi, buyurtmachi, ijrochi, javobgar, da‘vogar, merosxo‘r, mulkdor, ariza, bayonnoma, vasiyatnoma, bildirish, buyruq, qaror, farmon, imzolamoq, tasdiqlamoq, konsullik, konsulxona, elchixonona, diplomat, elchi, memorandum, qonunchilik, kodeks, jinoyat, jazo, javobgarlik, diplomatiya* kabilar.

Mazkur birliklar ma‘no mohiyati, rasmiy matnning qaysi turida qo‘llanishiga ko‘ra bir-biridan farqlanadi. Jumladan, *imzo chekuvchilar, qabul qilib oluvchi, hisob beruvchi, vasiyat qiluvchi, mudir, kotiba, hisobchi, soliqchi, buyurtmachi* kabi leksik birliklar rasmiy-idoraviy nutqiy muloqotni shakllantirishga xizmat qiladi. *Konsullik, konsulxona, elchixonona, diplomat, elchi, memorandum, ratifikatsiya, tashrif* leksemalari esa diplomatik nutqiy muloqot matni tarkibida uchraydi.

Qonunchilik, qonun, kodeks, modda, jinoyat, jazo, javobgarlik, jabrlanuvchi, gumondor, sudlanuvchi, guvoh leksemalari esa qonunchilik uslubiga xoslangan til birliklari hisoblanadi.

Ushbu leksik vositalar nutqiy muloqotda qo‘llanar ekan, matnning rasmiy xarakter kasb etishini ta‘minlaydi. Albatta, bu o‘rinda mazkur tipga mansub leksik birliklarning badiiy matnda poetonim vazifasida kelishi yoki o‘z ma‘nosidan tashqarida ko‘chma ma‘noda qo‘llanishini farqlash joiz. Bunday vaziyatda ushbu leksik birliklar rasmiy matnni shakllantirishga xizmat qilmaydi.

Rasmiylik kategoriyasini hosil qiluvchi morfologik vositalar. Bu turga rasmiy uslubga xoslangan yoki rasmiy matnda sintaktik qoliqlar tarkibida qo‘llanib kelayotgan quyidagi morfologik shakllar kiradi:

1) fe‘l shakllari: *tavsiya etilsin, tasdiqlansin, e‘tiborga olinsin, jalb etilsin, ta‘minlansin, e‘lon qilinsin, yo‘lga qo‘yilsin* kabi fe‘lning uchinchi shaxs buyruq-istak maylidagi hamda *buyuraman, so‘rayman, so‘raymiz, iltimos qilaman, iltimos qilamiz* kabi birinchi shaxs birlik va ko‘plikdagi xabar mayli shakllari; *ishtirok etganlar, so‘zga chiqqanlar* kabi otlashgan sifatdoshlar; *taklif etilganlar, yig‘ilganlar,*

sanab ko'rsatilganlar, berildi, eshitildi, qayd etildi, ta'kidlandi kabi majhul nisbatdagi fe'llar; *shartnoma tuzish, bitim tuzish, pul o'tkazish, kamomadni*

qayd etish, da'vo arizasini kiritish tarzidagi sintaktik konstruksiyalar tarkibida kelgan harakat nomi shakllari;

2) rasmiy kishilarni anglatuvchi shaxs otlari: *mudir, kotib, muharrir, notarius, akademik, professor, dotsent, kichik ilmiy xodim, buyurtmachi, ijrochi, javobgar, jabrlanuvchi, qarzdor, mulkdor, elchi* kabilar;

3) rasmiy tashkilotlarning qisqartma nomlari (O'zR – O'zbekiston Respublikasi, XVF – Xalqaro valyuta fondi, BMM – Bosh metodik markaz, BMT – Birlashgan Millatlar Tashkiloti kabilar);

4) sintaktik qoliplar tarkibida qo'llanuvchi kishilik olmoshlari (*Sizni ...-ga taklif etamiz, ...Sizga yo'llaydi, ...Sizga ma'lum qiladi, ...Sizdan ...-ni so'raymiz // iltimos qilamiz, ...bizga // unga // ularga yo'llangan, ...bizni // uni // ularni xabardor qilishingizni* kabilar); o'zlik olmoshi (*o'z muddatida, o'z tasarrufidagi, o'z hisobidan, o'z roziligi bilan, o'z xohishimga ko'ra, o'z kuchini yo'qotgan* kabilar); ko'rsatish olmoshlari (*shuni e'tiborga olib, shuni ma'lum qilamizki* kabilar);

5) tartib sonlar: *birinchi, ikkinchi* (*birinchi masala yuzasidan, ikkinchi masala bo'yicha*) va boshqalar.

Xarakterlisi shundaki, bunday morfologik birliklar rasmiy muloqot matnlarini shakllantiruvchi tayanch birliklarga aylangan. Masalan, matn tarkibida kelgan *so'rayman, iltimos qilamiz* fe'l shakllari iltimos nutqiy aktini shakllantirish bilan birga, unga rasmiylik tusini beradi. *E'lon qilinsin, yo'lga qo'yilsin, jalb etilsin, ta'minlansin, buyuraman* kabilar qaror, farmoyish nutqiy aktlarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Rasmiylik kategoriyasini hosil qiluvchi sintaktik vositalar. Bu kabi vositalarga so'z birikmalari va gaplardan tashkil topgan sintaktik birliklarni qamrab oladi. Ularni o'z ichida quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

1) so'z birikmalari: *ishchi guruh, nomlari ko'rsatilganlar, yig'ilish raisi, kengash raisi, kafedra mudiri, yig'ilish kotibi, kengash kotibi, vazifasini bajaruvchi, javobgar shaxs, mansabdor shaxs, jismoniy shaxs, diplomatik aloqa, diplomatik munosabat, diplomatik uchrashuv, shaxsiy nota, rasmiy tashrif, ishonch yorlig'i, muxtor elchi, muxtor vakil, qonunchilik asoslari, qonunchilik palatasi, milliy qonunchilik, qonun ustuvorligi, siyosiy maydon* kabilar.

Sanab o'tilgan ushbu so'z birikmalari bugungi kunda rasmiy muloqot egalari lisoniy ongidan yaxlit tarzda o'rin olgan bo'lib, nutq jarayoniga tayyor holda olib kiriladi. Masalan, O'zR Prezidenti Sh.Mirziyoyev nutqidan olingan quyidagi matnda *Saylov kodeksi, milliy qonunchiligimiz, demokratik saylovlar, siyosiy maydon, siyosiy partiyalar* kabi bugungi kunda o'zbek tili rasmiy uslubida tayyor holda uchraydigan so'z birikmalaridan foydalanilgan:

...O'tgan qisqa davrda saylovga oid 21 ta qonun tizimlashtirilib, O'zbekiston tarixida ilk bor yagona Saylov kodeksi qabul qilindi. Bu milliy qonunchiligimizni mustahkamlash, demokratik saylovlarni o'tkazishni yanada takomillashtirish yo'lidagi muhim qadam bo'ldi.



Mazkur kodeksdagi eng katta yangilik **siyosiy maydonning to‘liq siyosiy partiyalarga berilishi bilan bog‘liq, desak, adashmagan bo‘lamiz....** (O‘zR Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Koreya Respublikasi Prezidenti Mun Chje Inning davlat tashrifi munosabati bilan so‘zlagan nutqidan);

2) ko‘makchili konstruksiyalar: ko‘rsatmangizga binoan, arizasiga muvofiq, mehnatiga yarasha, mehnat bitimiga binoan, iltimosiga binoan, iltimosiga ko‘ra, shartnomaga muvofiq, davlatlararo bitimga ko‘ra, diplomatik bitimga ko‘ra, qonunchilikka ko‘ra, davlat qonunchilik asoslariga binoan tarzidagi ko‘makchili konstruksiyalar. Bunday ko‘makchili konstruksiyalar rasmiy uslubda qo‘llanishga xoslangan bo‘lib, rasmiy idoraviy, diplomatik hamda qonunchilik uslubiga oid matnlarning shakllanishida muhim o‘rin tutadi. Masalan:

Endilikda inson huquq va erkinliklarini himoya qilish sohasidagi barcha huquqni muhofaza qilish organlari faoliyati qonunchilikka ko‘ra parlament tomonidan doimiy nazorat qilib borilmoqda.... Biz Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan hech istisnosiz barcha masalalar bo‘yicha davlatlararo bitimga ko‘ra oqilona murosa asosida hamkorlik qilishga tayyormiz. (O‘zR Prezidenti Sh.Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasi 72-sessiyasidagi nutqidan).

Berilgan matnda qo‘llangan *qonunchilikka ko‘ra, davlatlararo bitimga ko‘ra ko‘makchili konstruksiyalari;*

3) murojaat birliklari: *xonimlar va janoblar, hurmatli deputatlar, muhtaram elchi, janob elchi, muhtaram xorijiy diplomatik korpus vakillari, hurmatli Senat a‘zolari, muhtaram Prezident, qadrlı Vatandoshlar* kabilar.

Bu tipdagi murojaat birliklari rasmiy shaxslarni qayta nomlaydi. Shunisi xarakterliki, rasmiy nutqiy muloqotda qo‘llanadigan bu kabi murojaat birliklari nutqiy aloqani ta‘minlashga xizmat qiladi.

Masalan, O‘zbekiston Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlis palatalari qo‘shma majlisida prezidentlik lavozimiga kirishish marosimida so‘zlagan quyidagi nutqiga e‘tibor qaratamiz:

Assalomu alaykum, muhtaram vatandoshlar! Hurmatli Senat a‘zolari! Hurmatli Qonunchilik palatasi deputatlari! Xorijiy diplomatik korpus vakillari! Xonimlar va janoblar! Avvalo, menga ulkan ishonch bildirib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti etib qayta saylagan barcha yurtdoshlarimga chin qalbindan minnatdorlik izhor etib, mehnatkash, olijanob va bag‘rikeng xalqimizga farzandlik mehri va sadoqati bilan ta‘zim qilaman.

Ushbu rasmiy nutqda keltirilgan “*muhtaram vatandoshlar*”, “*hurmatli Senat a‘zolari*”, “*hurmatli Qonunchilik palatasi deputatlari*”, “*xorijiy diplomatik korpus vakillari*”, “*xonimlar va janoblar*” murojaat birliklarini rasmiy muloqotda tayyor holatda uchraydigan birliklar qatoriga kiritish mumkin. Bunday birliklar jamiyatda shakllangan rasmiy muloqot odobi, muloqot madaniyatini namoyish qilishga ham yordam beradi;

4) qoliplashgan gap shaklidagi sintaktik konstruksiyalar: “*Meni ... -sh (-ish)gizni so‘rayman*”, “*Sizdan ... -sh (-ish)gizni so‘raymiz*”, “*...-ga vasiyat qilib qoldiraman*”, “*...-ni bekor qilaman*”, “*... menga tegishli merosdan voz kechaman*”, “*...-ga rozilik bildiraman*”, “*Arizamga ilova etildi*” kabilar.



D.Lutfullayeva bugungi kunda rasmiy-idoraviy ish hujjatlari matnida bir xil qolipga tushib qolgan birikmalar (stereotip birliklar, klishelar) ko‘p uchrashi, ular rasmiy uslub tilining o‘ziga xosligini ta’minlashi haqida fikr yuritib quyidagilarni yozadi: “Sintaktik qoliplar ish hujjatlarining faqat bir turiga xos bo‘ladi, boshqa turlari esa o‘zining shunday qoliplariga ega bo‘ladi. Masalan, yakka shaxs tomonidan yozilgan iltimos mazmunidagi ariza matnida *“Meni ... -sh(-ish)gizni so‘rayman // iltimos qilaman”*, *“Menga ... -sh(-ish)gizni so‘rayman // iltimos qilaman”* qoliplariga mos jumlar kuzatiladi. Bunday ariza ko‘pchilik nomidan yozilganda jumla *“Bizni ... -sh (-ish)gizni so‘raymiz // iltimos qilamiz”*, *“Bizga ... -sh (-ish)gizni so‘raymiz // iltimos qilamiz”* qoliplari asosida shakllantiriladi. Bu sintaktik qolip boshqa ariza turlarida ham takrorlanadi. Ba’zi arizalar matnida *“Sizdan ... -sh (-ish)gizni so‘rayman”*, *“Sizdan ... -sh (-ish)gizni so‘raymiz”* qolipidagi jumlar kuzatiladi. Bunday qoliplar shikoyat, iltimos mazmunidagi ariza matnlarida uchraydi. Ariza vasiyatnoma shaklida bo‘lganda *“...-ga vasiyat qilib qodiraman”* qolipidagi gaplar tuziladi. Vasiyat bekor qilinganda *“...-ni bekor qilaman”* qolipidagi gaplardan foydalaniladi. Merosdan voz kechilganda *“... menga tegishli merosdan (meros hissasidan) voz kechaman”* qolipidagi gaplar ishlatiladi. Rozilik aks ettirilgan arizalarda esa *“...-ga rozilik bildiraman”* qolipidagi gaplardan foydalaniladi. Shuningdek, *“Arizamga ilova etiladi”* qolipidagi gaplar ham arizalar matniga xos.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Аминов М., Мадвалиев А., Маҳкамов Н., Маҳмудов Н. Иш юритиш. 2-нашри. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2003. – 246 б.
2. Аминов М., Мадвалиев А., Маҳкамов Н., Маҳмудов Н., Одилов Ё. Давлат тилида иш юритиш. Амалий қўлланма. – Тошкент: “O‘zbekiston nashriyoti” унитар корхонаси, 2020. – 528 б.
3. Лутфуллаева Д. Мустақиллик даври расмий-идоравий иш услуги тараққиёти. – Тошкент: Нодирабегим нашриёти, 2020. – 95 б.
4. Бегматов Э., Турсунпўлатов М. Ўзбек нутқ маданияти асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1991. – Б. 70-75.